



## SIFILIS (ZAXM) KASALLIGI, UNING ALOMATLARI VA BIRLAMCHI OQIBATLARI

Bobomurodova Dilbar Bobomurod qizi

*SamDTU pediatriya fakulteti 302-guruh*

Uzoqova Go'zal Faxriddin qizi

*SamDTU davolash-2 fakulteti 222-guruh*

Turaqulova Ra'no Uchqun qizi

*SamDTU davolash-2 fakulteti 502-guruh*

Turaqulova Dinora Uchqun qizi

*SamDTU davolash-2 fakulteti 405-guruh*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada sifilis ya'ni zaxm kasalligi va uning birlamchi alomatlari haqida batafsil yoritiladi. Shuningdek, mazkur maqolada zaxm kasalligining namoyon bo'lish turlari, bosqichlari va uning oqibatlari haqida bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *sifilis, limfadenit, pnevmoniya, shankr, popula, serologik, reaksiya*

**Annotation:** *In this article, syphilis is a wound disease and its primary symptoms. Also, this article describes the types, stages and consequences of wound disease.*

**Key words:** *syphilis, lymphadenit, pneumonia, chancre, popula, serological, reaction*

**Аннотация:** *В данной статье сифилис раневая болезнь и ее первичные симптомы. Также в данной статье описаны виды, стадии и последствия раневой болезни.*

**Ключевые слова:** *сифилис, лимфаденит, пневмония, шанкр, популя, серологическая, реакция*

Dermatologiya teri kasalliklari haqidagi fan bolib, sog' va patologik o'zgargan terining tuzilishi, funksiyasi, teri va ichki a'zolarining turli patologik holatlardagi o'zaro munosabatini, har xil dermatozlarning kelib chiqish sabablari va rivojlanish jarayonini, teri kasalliklarini aniqlash usullarini, davolash va oldini olish choralarini o'rganadi. Venerologiya - tanosil kasalliklarining klinik kechishini, epidemiologiyasini, ularni aniqlash va oldini olish choralarini o'rganadi. Teri va tanosil kasalliklari. Adham Vaisov. Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2009. 13.

Zaxm kasalligi ham dermatologik kasalliklardan biri hisoblanadi. Sifilis deb ataluvchi zaxm kasalligi – bu yuqumli venerik kasallik bo'lib, uning sababchisi oqish treponema (spiroxeta) infeksiyasidir. Bu mikroorganizm anilin bo'yog'i bilan yomon bo'yalganligi uchun oqish deyiladi. Kasallik teri va shilliq qavat orqali jinsiy yo'l bilan uzatiladi. To'g'ridan-to'g'ri aloqa va turli turdagi uy-ro'zg'or buyumlari orqali yuqishi ham mumkin. Sifilis eng xavfli yuqumli kasallik hisoblanadi. Juda osonlik bilan yuqishi mumkin, bir necha yuqish yo'llari mavjud. Tibbiy statistikada zaxm 95% hollardajinsiy aloqa yo'li bilan va 5% hollarda kundalik aloqalar yoki zararlangan qon orqali yuqadi. Bundan tashqari, yo'ldosh orqali onadan bolaga va qon quyishi natijasida yuqishi mumkin. Zaxm kasalligi birinchi bosqichda faqat zararlangan qon orqali uzatiladi. Kasalliklar kelib chiqishi. Olim



Majidov. Toshkent. “Barkamol avlod”. 2003. Infeksiyani turmushdagi aloqa qilish orqali yuqishi kasallangan odam biron narsani ishlatganidan keyin darhol boshqa sog'lom odam ishlatganida kuzatiladi, zero infeksiya inson tanasidan tashqarida uzoq vaqt yashamaydi va tezda o'ladi. Sifilisga uning yashirin shakli tufayli tashxis qo'yish qiyin.

Belgilar yo'qligi shifokorga kech murojaat qilishga sabab bo'ladi, bu esa boshqalar sog'lig'iga xavf tug'diradi va zararlanganlar sonini ko'paytirishga olib keladi.

Zaxmni tashxislash kompleks usulda amalga oshiriladi. Albatta, zaxm borligi uchun tezkor testni o'tish mumkin, bu testning ijobiy natijalari chuqur tahlillar o'tkazishga undaydi va kasallikning aniq borligini ko'rsatmayd.

Umuman olganda, sifilisi tashxislash laboratoriya, shifokor tomonidan tekshirilishi va bemorning shikoyati asosida amalga oshirilishi kerak.

Kasallikning dastlabki davrida serologik reaksiyalar salbiy natijani ko'rsatishi mumkin, chunki qondagi antitanalar hali kerakli miqdorga yetib bormagan. To'rtinchi haftaning oxiriga kelib reaksiya doimo ijobiy bo'ladi. Yara yoki qattiqshankr 3-12 haftada mustaqil ravishda yo'qoladi, kichik chandiq qolishi mumkin. Zaxmni tashxis qilish qattiq shankr ajralmalarini tekshirish asosida amalga oshiriladi. Umuman olganda, oddiy poliklinikada sifilisga testlar topshiriladi.

Shifokor har qanday holatda ham qonning Vasserman reaksiyasi (RV qon) uchun tahlilini buyuradi va ijobiy javob olinganda jinsiy kasalliklar dispanseriga yo'nalish beradi. Faqat u yerda (shuningdek, xususiy klinikalarda ham) zaxm uchun keng qamrovli tashxis amalga oshiriladi, chunki “noto'g'ri” tashxis holatlari mavjud. Sifilis, ya'ni zaxmning II va III bosqichlarida bo'g'inlarning o'tkir va surunkali kasalliklari paydo bo'lishi mumkin. Aksariyat simmetrik bo'g'inlar, suyaklarning bo'g'in oxirlari zararlanadi. Ko'pincha tizza bo'g'inlari shikastlanadi.

Bo'g'inlarning funksiyalari buziladi. Bemorlarda tungi og'riq kuzatiladi, palpatsiya qilinganda, bularning g'adir-budurligi seziladi. Kasallikda ko'pincha terida o'ziga xos rozeola toshmalari toshadi. Ba'zi bir bemorlarda bo'g'in bo'shliqlarida og'riq paydo qilmaydigan suyuqlik ko'p to'planadi, ular ustidagi teri qizarmaydi, yon tomonlarida sinovial pardalar bo'rtib chiqadi. Boshqa bemorlarda bo'g'inlarda suyuqlik to'planmaydi, biroq sinovial pardalari vorsinkali qatlamlardan qalinlashib, ulaming shakli o'zgaradi.

Buni paypaslab ko'rilganda, osonlikcha aniqlash mumkin. Lekin shunday turlari ham uchraydiki, ularda bo'g'inlar sirtidan kam o'zgaradi. Zaxmli artritlarda, odatda, muskullar atrofiyasi yuz bermaydi. Ichki kasalliklar. Y.Arslonov, A.Nazarov, A.Bobomurodov.

Toshkent. “Ilm-ziyo”, 2013. 73Osteoporozlar ancha kam uchraydi. Zaxmli artritlarning nuqul sinovial turlarida rentgenografiya hech qanday o'zgarishlar topmaydi. Laboratoriya tahlili. Vassermanning musbat reaksiyasi tashxisiy ahamiyatga ega. Biroq u bemorlarning 60-70 % ida musbat bo'ladi. Eritrotsitlarning cho'kish reaksiyasi tezlashgan.

Chapga siljigan o'rtacha leykositoz va monositoz qayd qilinadi. Zaxm artriti unga qarshi vositalar bilan davolanadi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, zaxm va uning oldini olish har bir insonning o'z qo'lida. Zero, sog'lik – mustahkam boylik.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Teri va tanosil kasalliklari. Adham Vaisov. Toshkent. “Yangi asr avlodi”. 2009.
2. Kasalliklar kelib chiqishi. Olim Majidov. Toshkent. “Barkamol avlod”. 2003.
3. Ichki kasalliklar. Y.Arslonov, A.Nazarov, A.Bobomurodov. Toshkent. “Ilmziyo”, 2013. 73.
4. Быков В.Л. Глава Кожа и её производные // Частная гистология человека. — СПб.: Сотис, 2001. — С. 56—70. — 304 с. — 3000 экз. — ISBN 5-85503-116-0.
5. Книпович, Тарханов И. Р., Хлопин Г. В., Кожа // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.
6. Афанасьев Ю.И., Юрина Н.А., Котовский Е.Ф. и др. Глава 19. Кожа и её производные // Гистология, цитология и эмбриология / Под ред. Ю.И. Афанасьева, Н.А. Юриной. — М.: Медицина, 2002. — С. 637—656. — 744 с. — ISBN 5-225-04523-5.
7. Быков В.Л. Глава 14. Нервная ткань // Цитология и общая гистология. — СПб.: Сотис, 2000. — С. 453—486. — 520 с. — 2000 экз. — ISBN 5-85503-080-6.